

**ABDULLA AVLONIY, ABDURAUF FITRAT, MUNAVVAR QORI
QARASHLARIDA YOSHLARDA TA'LIM TARBIYA VA TENGLIK
MASALALARI**

Mamirov Azizjon Niyazmuxamedovich

Aziz_m@list.ru

ALFRAGANUS university

Katta o'qituvchi, Falsafa doktori (Phd)

Аннотация

Ushbu maqolada jadid namoyondalari bo'lган Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Munavvar qori kabi tarihiya siymolarimizning yoshlar tarbiyasidagi qarashlarining ahamiyati yoritib berilgan. O'z davri tuzumining yoshlar ongiga salbiy ta'siri doirasida ularda to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish bilan bir qatorda tenglik tushunchasi mohiyati bo'yicha o'z qarashlarini keltirib o'tganlar.

Таянч сўзлар: Jadid, bag'rikenglik, yoshlar, jamiyat, tenglik, odob, hulq, ma'rifatparvar, ma'naviy, maktab.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar negizida o'z hayotini garovga qo'yib, istiqlol uchun jon fido qilgan, jadid nomi bilan tanilgan otabobolarimizning juda katta mehnatini ko'rishimiz mumkin. Jadidchilikning asosiy g'oyaviy harakati Turkiston o'lkasida mustaqillik va ma'naviy yuksalish, mamlakatdagi barcha din vakillari va millat-elatlarni teng ko'rgan holda jahon sivilizatsiyasi erishgan muvaffaqiyatlardan xalqni bahramand etish, inson va jamiyat erki va kamoloti orqali jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan edi.

Ma'rifatparvar olim, shoir, dramaturg, jurnalist, davlat arbobi va jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy ijodi o'sha davr ma'rifatparvlik sohasida alohida o'rin tutadi. U yangicha usulda yangicha maktab ochishda faol ishtirok etdi. Maktab ta'limi uchun darsliklar yozdi. Maktab-maorif ishlariga yordam beruvchi «Jamiyat xayriya» ochib, yetim va boquvchisi yo'q, sharoiti og'ir bolalarni o'qitishni yo'lga qo'ydi. Taniqli ma'rifatparvarlar bilan keng miqyosda hamkorlik qilib, «Nashriyot», «Maktab» shirkatlarini tuzishda katta hissa qo'shdi. «Xurshid», «Tujjor», «Osiyo» kabi gazetalarning chiqarilishida bevosita o'zi ishtirok etdi. O'z muharirrigi ostida «Shuhrat», keyinchalik «Turon» gazetalarini bosib chiqardi. A.Avloniy asos solgan maktab gumanistik va bag'rikenglik g'oyalar va erkin tarbiyaga asoslangan bo'lib, bolalarga dunyoviy ilm



fanni o'rgatishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Asosiy maqsad xalqni birlashtirgan holda yoshlarni kamolotga yetkazish bo'ldi. Adib jadidchilik maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» kabi darsliklar tuzdi.

A.Avloniy inson xulqi va odobi, insondagi barcha fazilatlarni «go'zallik» tushunchasi atrofida jamlaydi. Uning fikricha barcha ezgu fazilatlar insonda go'zallikni ifodalaydi. Har bir insondagi asl go'zallikni ilmu ma'rifatda, tadbirkorlik qilib, halol yo'l bilan boylik orttirishda, deb izohlaydi. Uning nazdida ilm va mol dunyo o'z xalqiga xizmat qilish uchun zarur. Alloma boshqa millat va mamlakat vakillari o'z yurtida ilm orqali boylik orttirgani, boy insonlar mablag'ini ilm yo'lida sarflayotganini ta'kidlab, shunday deydi: «Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yevropaliklar o'zimizdan olg'on besh tiyinlik paxtani keltirib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotib, sandor chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'mniga kesak tishlaymiz! So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tunganmas say, bitmas g'ayrat lozimdur»[1].

Abdulla Avloniyning millatlar o'rtasida bag'rikenglik masalasida qilgan ishlarini professor B. Qosimov quyidagicha ta'riflaydi: «Abdulla Avloniy tatar, ozarbayjon, usmonli qardoshlari bilan yaqindan aloqa bog'ladi. Ulardan ko'p narsa o'rgandi, o'rgatdi. Bu o'zaro hamkorlik ijodi va faoliyatida yorqin izlar qoldirdi. Shoir mashhur ozarbayjon kuychisi Muhammad Hodidan ilhom olib, unga naziralar bitdi»[2].

Adibning bu harakatlari mazmun-mohiyatida millatlararo birlik, bag'rikenglik, millatparvarlik g'oyalariga amal qilgan holda hayot kechirish, mamlakatning gullab-yashnashiga ilm-ma'rifat va ma'naviyat rivojlanishiga olib kelishini yoshlar ongiga singdirish edi. Tahlilimizcha, uning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy didaktik mazmundagi o'zbek ma'rifatchiligining noyob asarlar sirasiga kiradi. Bu asarda yoshlarga oid tarbiya masalasi, axloqiy muammolar, davr talab-ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahlil qilingan. U inson xulqlarini yaxshi, yomon va an'anaviyga ajratgan holda, o'z fikr mulohazalarini Aristotel, Platon, Sa'diy Sherazi, Bedil fikrlariga suyanib aytib o'tadi, ularni o'sha davrning asosiy mezoni qilib oladi. Asarda tenglik, matonat, ilm, sabr,adolat, muhabbat kabi tushunchalar «yaxshi xulqlar» sifatida talqin qilinadi. Asarda «Yomon xulqlar» deganda, g'azab, jaholat, razolat, adovat, g'iybat, hasad, boshqa millat va elat vakillariga past nazar bilan qarash kabi xislatlarni keltirib, ularni talqin qiladi. Shuningdek, sharqona tarbiyaning o'ziga xosligi, «tenglik», «bag'rikenglik» tushunchalarining o'zbek



millati qoniga singib ketganligi, ta'lim tarbiya negizini tashkil qilishi asosiy talablar bilan ta'riflab berilgan. Afsuski 30-yillarda boshlangan siyosiy jarayonlar natijasida bu kitob taqiqlab qo'yildi. Abdulla Avloniyning boy merosi zalolatga yuz tutdi. Uning asarlarini kutubxonalardan ham topish qiyin bo'lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng bu asarni chop etish, Uning merosini o'rganishga katta e'tibor berildi.

O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik namoyondalarining yirik vakillaridan biri, jadidchilik harakati rivojiga o'zining beqiyos xissasini qo'shgan shaxslardan yana biri Abdurauf Fitrat edi. Abdurauf Fitrat: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq»[3].

Abdurauf Fitrat tarbiyani har qanday jamiyat rivojida eng ilg'or vazifa qilib belgilaydi. Uning fikricha, har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri tarbiya, nafaqat bir oila taqdirida, balki butun bir jamiyat taqdirida ham o'zgarish sodir etishi mumkin.

Fitrat davrida Buxoroda madaniy muhit judayam past darajada bo'lganligini afsus bilan tilga oladi. Buxuoro halqining aksariyatda tijorat va ilm, axloq va sanoat, maishiy hayot masalalarida "bir yaxudiychalik" bilimga va saviyaga ega emasligini ko'rib afsuslanadi. O'sha davrda boshqa davlatlarda telefon va telegraf, temir yo'l va ilm-fanning turli sohalari rivojlanayotgan bir davrda, bu yangiliklarga befarq bo'layotgan buxoroliklarning ahvoliga afsus bilan qaradi. Hatto oddiy xat yoki so'zlarni yoza oladigan savodli insonlar yo'qligini ta'kidlab o'tadi.

Fitrat o'z maqolalaridan birida shunday yozadi: «biz qanday taraqqiyotga erishamiz?». Maqola davomida u Turkiston musulmonlari taraqqiyot yo'lini qanday topish ustida bosh qotirmasa g'am bo'ladi, bizgacha taraqqiy etgan boshqa millatlar barcha yo'llarni ochib qo'yganlar, biz faqat ularni o'zlashtirishimiz kerak, eng asosiysi, bu harakatimiz e'tiqodimizga daxli yo'q, deb tushuntirishga harakat qiladi»[4].

Mamlakatda bu kabi ma'naviy va ruhiy-axloqiy qoloqlik ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, jadid namoyondalarining asosiy maqsad millatni botqoqlikdan olib chiqishga qaratilganligini asarlarida yozib o'tadi.

Xusan, uning jadid namoyondalari va o'sha davr yoshlari haqida yozgan quyidagi fikrlari ahamiyatga molik: «Millatimiz, xalqimizning bu darajada tuban qoluvlarini, shu ishlari tufayli martabada yomon kunlarg'a tushuvlarina nodonliqlari sabab bo'ldi, bizning o'quv uchun ilm va ma'rifatg'a yopishuv lozim, vatanimiz,



mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoqtursin, din ham dunyo ilmlari birla jihozlansun. Bu hol endi biz uchun farz bo‘ldi, eski maktablarda sakkiz yillar o‘quba-da eron xalqining ichkilik va ishq kabi sahofotlarindan iborat bo‘lg‘on adabiyotdin boshqani bilmovchi bolalarimiz yangi maktablarga kirib, din ham dunyo uchun foyda beraturg‘on lozim narsalarni o‘qisunlar, hisob va yozuv bilsunlar, do‘rt turli fan o‘qir uchun madrasalarimizda o‘n sakkiz yil yotuvchi shogirtlarimiz, o‘n ikki yil madrasani-da tamom shartina yetishdurub, o‘n besh fan o‘rgansunlar, madrasadan chiqub-da boshqalarni afgor (kufr) qilib tugul, balki musulmon qilib, e’lon yozuvchilarimizning imlolari kishi kuldurmak darajada buzuq bo‘lmasun, savodlarimiz, hunar va sanoatimiz, ekunchilik (dehqonchilik) ishlarimiz bu kungi kabi zabun holda turmasun, balki tuzalsun, yaxshilansun!»[5]. Bu fikri bilan Fitrat yosh avlod ilm-ma’rifatga intilishi lozimligiga undagan. Eng asosiy maqsad istiqlolga erishishdir. Faqatgina ma’rifat va ilmni shakllantirib, yoshlар ongini o‘stirish orqaligina buyuk kelajak qurish mumkinligiga urg‘u berib o‘tgan.

Uning dastlab yaratilgan «Munozara» (1909), «Hind sayoxi bayonoti» (1911), «Rahbari najot» asarlari orqali bag‘rikenglik va tenglik g‘oyalarini asosiy mezonlarini ko‘rsatib bergen. Q.Nazarov yozishicha: «Fitratning keyinroq yozilgan «Sharq siyosati» (1919), «Sharqda inglizlar», «Turkistonda ruslar» publitsistik maqolalarida istilo siyosatining turli xalqlar va millatlar hayotidagi ta’siri, salbiy oqibatlarini ravshan ko‘ra olgan, unga baho bera olgan yirik arbob sifatida fikr yuritgan»[6].

Fitrat asarlarida ko‘proq yosh avlodning tarbiyasi va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga katta e’tibor qaratgan. Jamiatda o‘zga bir millat vakilini kamsitish, dinini yerga urish va qadriyatlarini xo‘rlash orqali har qanday jamiyat hech qanday taraqqiyotga erisha olmasligini tushuntirishga harakat qilgan. Binobarin, jadidlarning ideali, ma’rifatparvarlik bo‘yicha odamlar orasidagi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va o‘zaro muhabbat va ma’rifatni kuchaytirishdan iborat.

Turkiston ma’rifatparvarlari orasida Munavvar Qori Abdurashidxonov alohida o‘rin egallaydi. Uning faoliyati va pedagogikaga qo‘sghan hissasi haqida yaqin-yaqinlargacha tanqidiy fikr bildirilar edi. Uning Turkiston xalqlari ma’naviy tafakkuri tarixidagi o‘rni kamsitildi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, inkor etildi.

«Munavvar qori, deb yozadi Sirojiddin Ahmad, - ismi jismiga monand, ma’naviyat sajiyasiga xos inson, asrimizning birinchi choragidagi xalqimiz uchun falokatli yo‘llarda «Men sendamen-sen mendasen» hikmatiga muvofiq elimiz, millatimiz



qalbiga ma'rifat va ozodlik, erk va hurlik nurini sochib, hayotning sertashvish yo'llarini munavvar qilishga intilgan alloma edi»[7].

Munavvar qori Toshkent ma'rifatparvarlari orasida «usuli jadid» maktablari mohiyatini yaxshi tushunib, uni mahalliy aholi orasida keng targ'ib qilishga katta xissa qo'shgan. So'ngra bu faoliyat yo'lboshchilaridan biri bo'lib, hayotida keskin burilish yasagan.

Munavvar qorining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini uch yo'naliшhga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisi, Munavvar qori savodini qadimgi maktab va madrasada chiqarganligi, uni bu masalada ta'lim zamon talablaridan ancha orqada qolayotganligini o'z ko'zi bilan ko'rib, anglab yetishiga olib kelgan. Bu borada islohotlar o'tkazish zarur ekanligi yangi maktablarga ehtiyoj kattaligini anglagan. Shu o'rinda «usuli jadid» maktablari paydo bo'lidan quvongan, ma'rifatparvarlik g'oyalarini yoshlari ongiga singdirishga qattiq bel bog'lagan.

Ikkinchisi, chor Rossiyasi tomonidan olib borilayotgan mustamlakachilik siyosatining negizida millatni o'qitish tizimiga uch tomonlik bilan qarshilik qilgan holda xalqni qoloq, ma'rifat va ziyodan uzoq qilish ekanligini tushunib yetgan va jadidchilik g'oyalarini yanayam kuchli targ'ib qilishga astoydil kirishgan.

Uchinchisi, Turkiston o'lkasida chor Rossiyasi tomonidan ruslashtirish siyosati boshlangan edi. Bu jarayonning pirovardida xalq, millat, vatan va zaminni poymol qilish siyosati yotganini ko'rgan alloma «usuli jadid» maktablarining millat ongini uyg'otuvchi, shakllantiruvchi, ijtimoiy-ma'rifiy kuch deb bildi.

Agar vaziyat shu tahlidda davom etib, «ruslashtirish» siyosati qarshilikka uchramay, rus tuzem maktablari soni oshib, maktab va madrasalar eski tartibda saqlanib qoladigan bo'lsa, «usuli jadid» larga yo'l berilmasa bora-bora xalqning ma'naviyati, madaniyati, qolaversa, o'zbek xalqining yuqolish xavfi katta ekanligini tushunib yetadi.

Shunday og'ir vaziyatda, tobora salbiy tus olib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhitda Munavvar qori rus-tuzem maktablariga qarama-qarshi o'laroq milliy ong, milliy g'ururni kuchaytiruvchi, yoshlari bag'rikenglik ruhida shakllanishini yo'lga qo'yishda katta rol o'ynovchi, dunyoni boshqa ko'z bilan ko'rishga rag'batlantiruvchi «Usuli savtiya» maktablarini ochishga bel bog'laydi. Birinchi maktabni o'z hovlisida tashkil qiladi. Xususan, M.Muxammadjonov yozishicha: «Shayx Hovand Taxur dahalik Mardadaxo'jaboyning mexmonxonasiда maktab ochib, bir-ikki yildan beri Abdusalim qori degan bir kishi bola o'qitib turmoqda bo'lg'onin aytdilar...



Bu yangi tartiblik makteblarning bu Toshkent shahrida joriy bo‘lib ketishiga birinchi sabab Munavvar qori bo‘lib, barisining programmini shul tuzib bergan»[8].

Maktab ochishdan asosiy maqsad yoshlarni bilimini oshirish va zamon talablari darajasida, hech kimdan kam bo‘lmagan tarzda ilmlarni rivojlantirish va mamlakatni ilmsizlik botqog‘idan qutqarish edi. U.Dolimov fikricha: «1913 yil Munavvar qori va Abdulla Avloniy tashabbusi bilan «Jamiyat Imdodiya» qoshida «Turon» jamiyat tashkil etildi. Ushbu «Turon» jamiyatni ikki yil deganda Toshkentda qiroatxona ochdi, teatr gruppasini shakllantirdi, gazeta va nashriyot ta’sis etdi»[9]. Bu harakatlari bilan Munavvar qori yoshlarni nafaqat ilmiy, balki ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantirishga harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Munavvar qori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga, badiiy ijodini ham keng yo‘lga qo‘yib, publitsist adib sifatida keng tanilgan. Uning she’r va hikoyalari davrning mashhur matbuotlarida chop etilgan, o‘zi yozgan darsliklarga kiritilgan. Shu bilan birga, maqolalarida ijtimoiy muammolar, dindorlik, axloq, mustamlakachilik va davlat idoralari masalalariga alohida e’tibor qaratgan holda, shu yo‘l bilan barchani tenglik va ilm olishga, shu yo‘l bilan erkinlik va rivojlanishga erishish mumkinligini insonlarga tushuntirishga harakat qilgan. Shu harakatlari natijasida o‘z davrining ilm-ma’rifatli va ziyoli insonlari qatorida juda katta obro‘ va e’tibor qozondi. 1918 yil aprel oyida tashkil topgan Turkiston xalq dorilfununing asoschisi bo‘ldi, unga rektor etib saylandi.

Turkistonlik jadidlar ona-Vatanni mustaqil, ozod holda ko‘rishi bosh maqsad deb, milliy ozodlik kurashida quroq bilan emas, balki xalqqa ma’rifiy bilim berish, yoshlarning ma’naviyatini oshirish orqali kurashni afzal, deb bilganlar. Qolaversa, jadid namoyondalari milliy ma’rifatparvarlik, millatparvarlik, milliy ozodlikka qaratilgan g‘oyalarini ilk qadamlaridan tortib, so‘nggi daqiqalargacha bayroq qilishdi, uni muntazam ravishda hayotga tatbiq qilishga harakat qilishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimov B. Abdulla Avloniy. – Toshkent: Toshkent tongi, 1979. – B. 268.
2. Qosimov B. Milliy uyg’onish. – Toshkent: Ma’naviyat. – B. 2002.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi/ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza // «Halq so’zi gazetasi», 2016 yil 8 dekabry.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B. 108.



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th December, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

5. Abdurauf Fitrat. Johilona mutaassibga misol. // Xalq so'zi. 1991. 13dekabrb.
6. Nazarov Q. O'zbek falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – B. 162-163.
7. Sirojiddin Ahmad. Munavvar qori. Esse. // «Sharq yulduzi». 1992. №5. – B.105.
8. Muxammadjonov M. Turmush urinishlari. – Toshkent: 1961. – B. 245.
9. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 54.



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings